



## BOLALAR LUG‘ATI SO‘ZLIGINI SHAKLLANTIRISH VA LEKSIKOGRAFIK SEMANTIZATSIYALASH MUAMMOLARI

*Rahmatova Zaira Haqnazarovna,  
Qarshi davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘quv faoliyatini tashkil etishda jahon o‘quv lug‘atchiligi tajribasida ma‘lum bo‘lgan leksik minimum((word list, slovník, leksicheskiy minimum) ta‘lim oluvchining muayyan til leksikasidan muloqot jarayonida maksimal darajada foydalanishi uchun eng kamida bilishi zarur bo‘lgan so‘zlar ro‘yxati)larni tuzish – hozirgi vaqtda davr talabi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar lug‘atida so‘zlarning bosqichma-bosqich o‘zgarib borishi, kundalik muloqot uchun eng zarur bo‘lgan so‘z, so‘z birikmalarining shakllanishi, ularning ijodiy tafakkurini o‘stirish uchun xizmat qiladigan, fikrlash olamini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydigan – leksik minimumlar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, leksikografik semantizatsiyalash va uning ilmiylik va mantiqlilik, ta‘limiylik, leksikani qulay shaklda taqdim etish, ko‘rsatib tushuntirish, umumiylik-xususiylik, izchillik, milliylik, zamonaviylik, didaktik, tushunarlilik, darajalilik tamoyillari xususida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha tarbiya, o‘quv lug‘atlari, lemma, leksik minimum, leksik birlik, assotsiativ maydon, ilk qadam, leksikografik semantizatsiya.

**Аннотация:** Создание известных в практике мировой образовательной лексикографии лексических минимумов ((word list, словарь, лексический минимум) список слов, которые учащийся должен знать хотя бы для того, чтобы максимально использовать словарный запас определенного языка в процессе общения) при создании учебной деятельности дошкольников – является требованием времени. В статье рассматривается постепенная смена слов в лексике дошкольников, формирование словарного запаса, необходимого для повседневного общения слова, лексических минимумов, которые играют важную роль в расширении мировоззрения, служат развитию их творческого мышления. Обсуждаются также принципы лексикографической семантизации и ее научно-логической, познавательной, удобной лексики изложения, демонстрации, общности, специфичности, последовательности, национальности, современности, дидактики, понятности, иерархичности.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, учебные словари, lemma, лексический минимум, лексическая единица, ассоциативное пространство, первая ступень, лексикографическая семантизация.

**Abstract:** Compilation of Lexical minimum (word list, dictionary, lexical minimum) known in the experience of world lexicography in the organization of educational activities of preschool children - a list of words that the learner must know in order to maximize the use of certain language vocabulary in communication This article discusses the gradual change of words in the vocabulary of preschool children, the formation of words and phrases, which are essential for everyday communication, serves to develop their creative thinking, plays an important role in expanding the world of thinking - lexical minimums. Also discussed are the principles of lexicographic semantization and its scientific and logical, educational, convenient presentation of the lexicon, demonstration and explanation, generality-specificity, consistency, nationality, modernity, didactic, comprehensibility, hierarchy.

**Key words:** preschool education, educational dictionaries, lemma, lexical minimum, lexical unit, associative space, first stage, lexicographic semantisation.

Yosh avlodning sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishi, o‘qishga intilish hissini oshirish, muntazam ta‘lim olishga tayyorlash, uzluksiz ta‘limning keyingi bo‘g‘inlarida o‘qishni davom ettirishi uchun zamin hozirlash, qolaversa, mustaqil fikrlash va o‘z fikrini erkin bayon etish ko‘nikmasini shakllantirishda maktabgacha ta‘limning roli muhim. Zero, maktabgacha bo‘lgan yosh bola shaxsining jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan shakllanishining asosiy davridir[1: <https://lex.uz/docs/4646908>].

Maktabgacha ta‘lim muassasasida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma‘naviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni o‘rab turgan atrof-muhitni o‘rganish, nutq o‘stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi[2:6]. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda insonni intellektual va ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, tafakkurini o‘stirish,





fikr mahsulini erkin bayon eta olish qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor bolaning ilk yoshlaridan boshlab nazoratga olinadi.

O'zbekistonda jahonning ko'pgina taraqqiy etgan davlatlari tajribasi asosida ta'lim oluvchilarning yoshi, dunyoqarashi, milliy qadriyatlarini, yashash joyi va boshqa jihatlarini hisobga olgan holda turli mavzuviy o'quv lug'atlarini yaratish, ularni talab darajasida nashr etilishini ta'minlash kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan hisoblanadi[3: № 46].

Lug'at so'zligi deganda to'g'ri talaffuz, imlo, morfem, tarjima lug'atlarida so'zlar ro'yxati, ensiklopedik va turli mavzudagi izohli lug'atlarda lug'at maqolalarning bosh so'zi (lemma) tushuniladi. Bunday lug'atlarda bosh so'z lug'atning chap qismi, izoh esa o'ng qismini tashkil qiladi.

O'quv lug'atchiligining eng asosiy muammolaridan biri so'zlikni shakllantirish prinsiplarini belgilash hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilayotgan lug'atlar so'zligini shakllantirishga qo'yiladigan talablar uzluksiz ta'limning keyingi bo'g'inlari uchun yaratilayotgan lug'atlar so'zligini tanlashdan ham birmuncha murakkab. Shu bois mutaxassislar bolalar uchun kitob yozishni eng qiyin ish deb hisoblaydilar. Ayniqsa, lug'at ishini boshlash, ya'ni so'zlikni tanlash, qaysi so'zni olish yoki olmaslik, umuman, har bir so'zga kompleks yondashish talab etiladi. Ko'p hollarda bu aniq hayotiy tajriba, asos, dalillarga tayanishni taqozo etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar lug'ati so'zligini shakllantirishda, *birinchidan*, bolalarda kundalik muloqot uchun eng zarur bo'lgan, *ikkinchidan*, bolaning ijodiy tafakkurini o'stirish uchun xizmat qiladigan, *uchinchidan*, bola dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydigan leksik birliklarni qamrab olishga e'tibor qaratiladi.

Jahon o'quv lug'atchiligi tajribasida o'quv lug'atining har qanday turini tuzishdan oldin, shu va boshqa tipdagi lug'atlar uchun asos bo'ladigan ro'yxatlar – leksik minimumlar tuzib olinadi. B.Bahriddinova o'zbek o'quv lug'atchiligi istiqboldagi vazifalarini sanar ekan, yo'l-yo'lakay leksik minimum masalasiga ham to'xtalib, uni quyidagicha izohlaydi: Leksik minimum (word list, slovník, leksicheskiy minimum) ta'lim oluvchining muayyan til leksikasidan muloqot jarayonida maksimal darajada foydalanishi uchun eng kamida bilishi zarur bo'lgan so'zlar ro'yxati"[4: 191]. U mazkur ro'yxatlarni ishlab chiqish leksik birlikning til egalari nutqida qo'llanish chastotasi (lingvistik leksikostatistika), o'quv-uslubiy maqsad va ta'limning shu bosqichi uchun mo'ljallangan dasturiy hujjatlar, davlat talablariga muvofiqligi (pedagogik lingvistik, lingvodidaktika, til o'qitish metodikasi), foydalanuvchining psixo-fiziologik holati, qobiliyati (psixologik, fiziologik) va so'zning semantik qiymati va boshqa bir qator ko'rsatkichlar (leksikografiya)ga asoslangan yo'nalishlarning asosiy tamoyillariga tayanilishi, tilni ona tili yoki xorijiy til sifatida o'rganishiga ko'ra ro'yxatlarining tubdan farqlanishini ta'kidlaydi.

Leksik minimum – til egalari, ya'ni muayyan yoshdagi foydalanuvchilar uchun turli o'quv vositalari, darslik, lug'atlar, badiiy asarlar yozishda foydalanilishiga asos bo'ladigan tilning muloqot tizimi uchun zarur mavzuviy-assotsiativ qatorlar, leksik birliklarning taxminiy ro'yxatidir. Maktabgacha yoshdagi bola o'sib-ulg'aygani sayin, bunday ro'yxatlar bosqichma-bosqich o'zgarib boradi. Keyingi bosqichdagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan ro'yxatlar nafaqat miqdor jihatidan ortadi, balki oldingi tanlangan birliklar zaruriyligini yo'qotib (ro'yxatdan chiqarilib), o'rnini yangi leksik birliklarga bo'shatib beradi[5: [https://rus4chld.pushkininstitute.ru/articles/min\\_leks\\_material.pdf](https://rus4chld.pushkininstitute.ru/articles/min_leks_material.pdf)].

Albatta, kichik yoshdagi bolalarning aqliy va jismoniy taraqqiyotida o'ziga xos tafovutlar bo'lgani bois bu ro'yxatdagi hamma birlik ham ularning barchasi uchun birdek yangi va "jozibador" bo'lavermaydi. Zero, har bir bola atrofidagi olamni o'z intellektual rivojlanishidan kelib chiqib individual ravishda angelaydi va leksik zaxirasi, kommunikativ imkoniyatiga ko'ra tengdoshlaridan farqlanadi. U, allaqachon ushbu leksik vositalardan o'z muloqotida to'laqonli foydalanayotgan bo'lishi mumkin. Ammo muayyan yoshdagi bolalar uchun minimal leksik materialni tanlashda ularning ta'limning qaysi bosqichiga mansub ekani va shu bosqich uchun mo'ljallangan davlat dasturlari, qolaversa, assotsiativ tajribalarga asoslaniladi.

Bolalar lug'ati tuzishdagi yana bir murakkab vazifa – bu izoh tipidagi lug'atlarda leksikografik semantizatsiya bilan bog'liq jarayondir. Izoh – leksemaning atash ma'nosi,





shuningdek, turli nutqiy realiyalarda yuzaga chiqadigan boshqa ma'nolari (vazifa, ifoda semalari) sharhi. Umumiy lug'atlarda bo'lgani kabi bolalar lug'atida ham so'z ma'nosining o'z, ko'chma, vaziyatga qarab frazeologik ma'nolari ham beriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan zamonaviy o'quv lug'atlarida so'z ma'nosini izohlashning bir necha ko'rinishlari uchraydi:

- a) semantik – atash, vazifa, ifoda semalarini izohlash;
- b) leksik-semantik guruhlarini izohlash;
- v) so'z shakliga doir ma'lumotlarni aniqlashtirish va b.

Lug'atda faqat so'zning semantikasi emas, balki asosiy paradigmatic xususiyatlari – sinonimi, antonimi, paronimi, uyadoshlari, shakldoshlari, umuman, ma'no va shakl jihatidan bog'liq so'zlar bilan aloqasi, shuningdek, so'zning sintagmatik xususiyati, uning boshqa so'z bilan grammatik va leksik muvofiqligi qoidalari, valentlik imkoniyati (boshqa so'zlarni tobelantirishi yoki tobelanishi, birikuvchanligi) va boshqa ma'lumotlar ham aks etadi.

Ko'p ma'noli so'zlar ma'nosini izohlash tartibi akademik izohli lug'atlarga xos tamoyillarga asoslanadi, faqat bunda bosh ma'nodan boshqa ma'nolar raqamlangan holatda emas, shunchaki ketma-ketlikda keltiriladi:

#### ALAM

*Alam* ruhiy qiynalishni bildiradi. *G'ayratning hech qayeri og'rigani yo'q, ammo haqsizlik qilishgani unga alam qilardi.*

*Alam* jismoniy og'riqni bildiradi. *Chaqaloq sanchilgan ignaning alamidan chirqirardi.*

*Alamimni olaman* deyilganda, alam o'ch, qasd, qasosni anglatadi.

*Alamidan chiqdi* deyilganda, g'azabi tarqadi degan ma'noni uqamiz. [8:9]

Agar shu leksik birlik o'z yoki ko'chma ma'nosida turg'un birikmalar, frazeologizmlar tarkibida uchrasa, ularga ham izoh beriladi

#### QULOQ

Boshimizning ikki tarafidagi hovuchimizday keladigan, o'rtasi teshik suprachalar, tegramizdagi ovozlarni tutib bizga eshittiruvchi kichik a'zomiz quloq deyiladi. *Odarning qulog'i. Otning qulog'i. Quloq supراسi. Teshik quloq eshitar.* (maqol)

Quloq so'zi boshqa so'zlar bilan birgalikda kelsa, har xil ma'nolar bera boshlaydi.

*Qulog'i yo'q* – gapga kirmaydi, *Qulog'i ding* – biror sharpadan hushyor tortib turish, *Quloq bermoq* – eshitmoq, *Quloqqa quymoq* – yaxshilab tushuntirmoq degan ma'nolarni bildiradi. [8:137]

Ko'chma ma'no nutqdagina yuzaga chiqishini inobatga olib, so'zning bosh ma'nodan boshqa ma'nolari izohlanganda "... boshqa so'zlar bilan birgalikda kelsa, har xil ma'nolar bera boshlaydi" tarzida izohlanishi kuzatiladi.

Nom ko'chishining deyarli barcha usullari bilan yuzaga kelgan ko'chma ma'nolar o'ziga xos tarzda, "bolalar tushunadigan tilda" izohlanadi:

#### TIRNOQ

Barmoqlar uchining orqa tomonidagi etga yopishgan, himoyalovchi xususiyatga ega bo'lgan qattiq qoplama tirnoq deyiladi. Tirnoq olish. Tirnoq o'stirish. Hayvon va qushlarning changalidagi uchi qayrilgan o'tkir o'simtasi ham tirnoq deyiladi. Burgutning tirnog'i. Arslonning tinoqlari.

Tirnoq bola, farzand ma'nosida ham keladi. *Tirnoq ko'rmoq. Tirnoqqa zor bo'lmoq.*

Tirnoq ichidan kir qidirish deganda yo'q narsadan kamchilik topib, birovni ayblashga urinish, tuhmat qilish tushuniladi. *Gap tashuvchi, tirnoqdan kir izlovchilarni, chaqimchilarni juda yomon ko'raman.* (Oybek. "Oltin vodiyan shabadalar") [8: 156]

Keltirilgan misolda tirnoq so'zining **sinekdoxa** (yunoncha synekdoche – birgalikda anglash, butun nomini qism, qism nomini butun nomi bilan atash) usulida ko'chma ma'noda qo'llanayotgani "Tirnoq bola, farzand ma'nosida ham keladi" tarzida izohlanganida ko'rish mumkin.

Maktabgacha bolalar lug'ati so'zligining xarakterli xususiyatlaridan biri bolaning faqat faol lug'atiga mansub so'zlar emas, passiv lug'atiga oid leksik birliklar izohiga ham katta o'rin berilishidir. Bu tipdagi lug'atlardan hududiy chegaralangan so'zlar (dialektizmlar) ham, tarixiy





soʻzlar (istorizmlar) ham, yangi soʻzlar (neologizmlar) ham, variantdosh soʻzlar ham, frazeologik birliklar, maqollar ham oʻrin olishi mumkin. Masalan, **barqaror birikmalar:**

### TIL

Til ogʻizning ichida joylashgan, taʼm sezadigan, odamlarga soʻzlashda, qushlarga sayrashda yordam beradigan aʼzodir.

Dori ichganimda tilim achishib ketdi.

*Shiringina tilim bor...*

*Boshimda kokilim bor...* (A.Obidjon. “Juda qiziq voqea”)

Til soʻzi qoʻshilgan bir talay gaplarimiz borki, ularning maʼnolari juda qiziq. Masalan, aytsam, tilim kuyadi, aytmamam – dilim deganda, men bu gapni aytib qoʻysam, menga tashvish keltiradi, aytmamam, yuragim tinchimaydi, degan maʼno kelib chiqadi.

Tilim bormaydi degan jumladan bu gapni aytishga botinmayman, degan maʼno chiqadi.

Tili qichidi deganda juda gapirgisi keldi, degan maʼnoni uqish mumkin. *Joʻra oti haqida gap solishni yaxshi koʻrar edi, darrov tili qichidi.* (Oybek. “Qutlugʻ qon”) [8:145]

Miraziz Aʼzamning “Ming bir soʻzni bilaman” lugʻatidan keltirilgan yuqoridagi misolda “aytsam, tilim kuyadi, aytmamam – dilim”, “tilim bormaydi”, “tili qichidi” kabi barqaror birikmalar keltirilgan boʻlib, izohlanishi bolalar nutqida milliy madaniyat, urf-odat va qadriyatlarimizni ifodalovchi leksik birliklardan foydalanish koʻnikmasini shakllantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar lugʻati soʻzligidan talaffuzi va yozilishida muammo boʻlgan soʻzlar, shakldosh va talaffuzdosh soʻzlar, zid maʼnoli va maʼnodosh soʻzlar, hududiy chegaralangan soʻzlar (dialektal leksika), sotsial chegaralangan soʻzlar, terminlar, barqaror birikmalar, onomastik qatlam birliklari, neologizmlar, soʻzning lugʻat va nolugʻat shakllari va boshqalar oʻrin olishi mumkin.

Umuman, maktabgacha yoshdagi bolalar lugʻati soʻzligini shakllantirish va semantizatsiyalashda quyidagi tamoyillar yetakchilik qiladi:

**1. Ilmiylik va mantiqlilik tamoyili.** Leksikografik semantizatsiyada turli tushunchalar, masalan, uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar, oʻsimlik turlari, rang turlari va hokazolarni izohlashda ilmiy yondashish zarur.

**2. Taʼlimiylik tamoyili.** Lugʻat soʻzligi maktabgacha taʼlimning amaldagi davlat talablarini nazarda tutgan holda, shu bosqich davlat talablariga muvofiq shakllantiriladi.

**3. Leksikani qulay shaklda taqdim etish tamoyili.** Lugʻat korpusi materialni, odatda, mazmuniy maydon va baʼzi hollarda alifbo tartibida taqdim qiladi. Alifbo tartibli lugʻatlar oʻquvchilarni tayyor materialdan foydalanishga, shuningdek, mustaqil izlanishga, fikr yuritishga, izoh va xulosalar chiqarishga oʻrgatishda qoʻl kelsa, mavzuviy tartibli lugʻatlarda soʻz maʼnosini assotsiativ maydoni, boshqa leksik-semantik guruh, tushunchalar qurshovida ochib berish imkoni mavjud boʻladi.

**4. Koʻrsatib tushuntirish tamoyili.** Vokabula (bosh soʻz)ning semantik izohiga vizual vosita – illyustratsiyalarni ilova qilish.

**5. Umumiylik-xususiylik tamoyili.** Lugʻat tuzishda umumiylik-xususiylik dialektikasiga tayanib ish koʻrish muhim. Mazkur usulda leksemalar orasidagi maʼnodoshlik, uyadoshlik, tur-jins, butun-boʻlak, darajalanish kabi munosabatlar aniqlanadi, bu ifodalanayotgan mohiyatning serqirraligini yoritib berishda yordam beradi [9: 35].

**6. Izchillik tamoyili.** Bir soʻzning turdosh lugʻatlarda berilgan izohlarida bir-xillik, uzviyligini taʼminlash. Masalan, muayyan lugʻatda berilgan har bir soʻzning orfografik shaklining imlo lugʻati bilan mos boʻlishi, semantik sharhlarning akademik izohli lugʻatlardagi maʼno bilan mosligi taʼminlanishi lozim.

**7. Milliylik tamoyili.** Lugʻatga tom maʼnoda milliy ruh berish. Nafaqat bezaklar, rasmlar, balki maʼnoning leksikografik izohida ham.

**8. Zamonaviylik tamoyili.** Izohli lugʻatda yangi kirgan soʻzlar – neologizmlarning qamrab olinishi. Masalan, onlayn, oflayn, turniket, skyuriti, kseroks, paynet, plastik kartochna, sim karta, telefon, kompyuter, internet, sayt, mobil xabar (SMS), telegram, kserokopiya, notarius[10:26] kabi.

**9. Didaktik tamoyil.** Bolalar lugʻati shunchaki bolaning soʻz zahirasini toʻldirish emas, uni







tarbiyalashga ham xizmat qilishi lozim. Yaratilayotgan lugʻatlar frontal nutqiy mashgʻulotlarni oʻtkazishga yoʻnaltirilib, didaktik va tarbiyaviy vazifalarni ham bajara olishi lozim. Lugʻat maqolada keltirilgan misollar ham shu maqsadga xizmat qilishi shart. Aniqrogʻi, izohlardan yamlamay yutibdi, tiriklay yebdi, boʻgʻib oʻldiribdi kabi misollar emas, ham taʼlimiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega misollar joy olishi lozim: Poʻlat Moʻmin oʻzbek bolalar adabiyotining yetuk vakili. Non – rizq-roʻzimiz.

**10. Tushunarlik tamoyili.** Bola nutqida deyarli ishlatmaydigan soʻzlar, izohga hojat boʻlmagan, eskirgan soʻzlar shunchaki lugʻat hajmini oshiradi. Masalan, gazlama, u, va kabi. Non, havo, ona, aka, suv kabi maʼnosini izohlashga ehtiyoj boʻlmagan leksemalarni izohlashda imkon qadar ularning nutqiy va lisoniy koʻchma maʼnolariga izoh berib, kundalik hayotdan misollar keltirishi lozim.

**11. Darajalilik tamoyili.** Lugʻat materiali oʻqitishning bir bosqichidan ikkinchi bosqichiga oʻtishda (kichik guruh, oʻrta guruh ...) murakkablashib boradi. Bu nafaqat lugʻat soʻzligi, hatto lugʻat nomida ham koʻrinishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisida”gi qonuni. 2019 yil 16 dekabr, OʻRQ-595-son / <https://lex.uz/docs/4646908>
2. Oʻrinbayeva D., Rahimova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tafakkurini shakllantirish usullari. – Samarqand, 2018. 120 bet. –B. 6
3. Bahriddinova B.M. Bogʻcha bolasiga lugʻat kerak emasmi? “Maʼrifat” gazetasi, 2018 yil 9 iyun, № 46
4. Bahriddinova B.M. Oʻzbekistonda oʻquv lugʻatchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari: Filol.fan... doktori (DSc) diss. – Samarqand. 2020., –252b., B.–191.
5. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. Toshkent, MERIYUS, 2017. –140 b., B.96-98
6. Ilk qadam. Maktabgacha taʼlim muassasasining Davlat oʻquv dasturi. Toshkent – 2018 yil.
7. Miraziz Aʼzam. Ming bir soʻzni bilaman: Bolalar uchun rasmiy izohli lugʻat.– Toshkent: «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. –200 b., B –9, –137, –156, –145.
8. Yoʻldosheva D.N., Tursunova O.F. Maktab oʻquvchilari uchun “Paronimlarning izohli lugʻati”ni tuzish tamoyillari xususida. BuxDU ilmiy axboroti, 2014., 4-son, – B. 35-40.
9. Amirov D.M., Atadjanov A.Y., Atadjanov D.Y., Ibragimov D.A., Rahimjonov Z.Y., Saidxoʻjayev S.S. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lugʻati. Toshkent – 2010.
10. Турабова С. К. ЗАМОНАВИЙ ШАРОИТДА ЯНГИЧА ФИКРЛАШ ТАРЗИ ВА АРГУМЕНТАТИВ КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗАРО АЛОҚАДОРЛИГИ. – 2022.
11. Turabova, S. K., & Juraeva, V. F. (2019). THE SOCIO-POLITICAL SIGNIFICANCE OF THE PHENOMENON SCIENTIFIC DISCUSSION IN THE DEVELOPMENT OF THINKING OF THE PEOPLES OF THE EAST. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(8), 168-174.
12. Turabova, S. K. (2019). Social importance of the discussion in the development of civil society. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 260-266.
13. Kattakulovna, T. S. (2022, April). SCIENTIFIC DISCUSSIONS AS AN INNOVATIVE METHOD OF COGNITION. In Conference Zone (pp. 116-117).
14. Axmedov B. Qorakoʻlchilik sohasini ilmiy tadqiqotlarda oʻrganilishining ahamiyati //Journal of Social Sciences. – 2021. – T. 2. – №. 01.
15. Mamasaliev M. M., Elboeva S. B. RELIGIOUS-PHILOSOPHICAL DOCTRINES OF SARVEPALLI RADHAKRISHNAN //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – С. 339-342.

